

Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1- avgust holatiga ko'ra viloyatda 3 469 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 778 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 534 tasi (15,4 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 318 tasi (9,2 %) to'qimachilik ishlab chiqarishga, 325 tasi (9,4 %) kiyim ishlab chiqarishga va 300 tasi (8,6 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- avgust holatiga ko'ra



II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan **32 365,6** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **108,4** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	32 365,6	108,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot tumani	657,6	110,5
Buxoro tumani	1 415,6	121,5
Vobkent tumani	866,1	109,1
G'ijduvon tumani	2 109,4	109,4
Kogon tumani	1 340,7	109,4
Qorako'l tumani	741,4	106,6
Qorovulbozor tumani	12 213,7	108,5
Peshku tumani	862,2	112,2
Romitan tumani	1 017,3	106,8
Jondor tumani	724,7	105,6
Shofirkon tumani	588,0	108,4
Buxoro sh.	3 446,0	113,5
Kogon sh.	994,4	111,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (**589 862,2** ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**15 323,6** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **106,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida (**119,4** %), Buxoro shahrida (**112,0** %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida**



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **29 623,5** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**91,5 %**) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **184,9** mlrd so'm (**0,6 %**), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **2 301,7** mlrd so'm (**7,1 %**) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **255,5** mlrd so'm (**0,8 %**) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyul oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: yumshoq bug'doy va spelta uni – 17 374,5 tonna, o'simlik yog'i (tozalangan) – 5 112,8 tonna, ip gazlamalari – 3 705,3 ming kv.m, avtomobil benzini – 539,6 ming tonna, xom yoki tozalanmagan oltingugurt – 502,1 tonna.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- iyul*	2025-yil yanvar- iyul *	2026-yil yanvar- iyul
Aroq-ming l 100% li spirt	2 501,8	1 226,1	1 440,1
Avtomobil benzini, ming t	608,1	599,7	637,7
Xom yoki tozalanmagan oltingugurt, t	763,5	980,3	603,4
Dizel yoqilg'isi, ming t	153,4	238,5	317,6
Mazut, ming t	49,3	39,9	30,9
O'simlik yog'i (tozalangan), t	7 043,1	5 768,8	5 112,8
Paxta tolasi, t	36 476,0	36 130,0	40 564,0
Paxta chigiti, t	60 687,0	56 554,0	41 413,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	15 359,1	19 058,8	18 251,5
Ip gazlamalari, ming kv.m	11 769,1	9 108,1	3 970,6

**2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Jami sanoat tarkibidagi koks va neft mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,9 % (2025-yilning yanvar – iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 % (2025-yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,7 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar- iyul oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,8 % (2,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 50,6 % (48,1 %), quyi texnologiyali 44,7 % (49,4 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo'yicha)

2026-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 10,6 % ga, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 56,9 % ga ko'paygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- iyul*	2025-yil yanvar- iyul *	2026-yil yanvar- iyul
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 020,2	890,7	2 301,7



Issiqlik energiyasi, ming gkal	444,1	336,8	255,5
-----------------------------------	-------	-------	-------

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar **19,9 %** ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **19,0 %** ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan **37,3 %** ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar- iyul*	2025-yil yanvar- iyul *	2026-yil yanvar- iyul
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	18 163,2	18 464,7	21 972,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	232,6	237,7	241,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar mln so'm	103 463,9	110 576,8	132 602,6

**2024-2025-yillarning yanvar- iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>



Tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyat Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Dehqonov
65 223-80-42 (8010)

